

---

## **“Hokimlik soati” yig’ilishi bo’lib o’tdi**

Bugun, Qo’shtepa tumani hokimligining yig’ilishlar zalida tuman hokimi A.Abdullayev rahbarligida “Hokimlik soati” yig’ilishi bo’lib o’tdi.

Yig’ilishda tuman hokimining o’rinbosarlari, apparat xodimlari va masalaga aloqador mas’ullar ishtirok etishdi.

Ushbu yig’ilishda iqtisodiy-ijtimoiy masalalar, ijro intizomini mustahkamlash, aholi murojaatlari bilan ishlar va ularni hal etish, xodimlar o’rtasida muomala madaniyatni, ichki tartib va odob ahloq qoidalariga rioya qilinishi va boshqa dolzARB masalalar muhokama qilindi.

Kun tartibiga kiritilgan barcha masalaning har biri tahliliy materiallar asosida atroficha muhokama etildi va tuman hokimi tomonidan masala ijrosiga mas’ul bo’lgan har bir rahbarga aniq topshiriqlar berildi.

2025-01-20 10:42:12